WORLDLY KNOWLEDGE
INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR ( Research bib ) – 7,293

***Isomova Farog'at Tojiddin qizi***

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrari o'qituvchisi*

*E-mail: isomovafarogattojiddinqizi@oxu.uz*

*https://interonconf.org*

# MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNING NUTQIY kOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Anotatsiya**:Maqolada maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning nutq hamda o'qish kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni, ushbu kompetensiyalarning bola rivojlanishidagi o'rni va samaradorligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar** : nutq, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya ,rivojlanish, kommunikatsiya ,og'zaki nutq,ijtimoiy munosabat,o'qish,savodxonlik.o'yin ,dastur.

**Аннотация**: В статье раскрывается содержание формирования речевых и читательских компетенций детей дошкольного возраста роль и эффективность этих компетенций в развитии ребенка.

**Ключевые слова**: речь, знание, умение, компетентность, компетентность, развитие, общение, устная речь, социальная установка, чтение, грамотность, игра, программа.

**Annotation**: The content of the formation of speech and reading competencies of children of preschool age the role and effectiveness of these competencies in child development is explained in the article.

**Key words**: speech, knowledge, skill, competence, competence, development, communication, oral speech, social attitude, reading, literacy. game, program

Jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimiz barcha sohalarda o'z rivojlanish strategiyalarni belgilab bormoqda. Binobarin, ,, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi'' ham mamalakatimiz farovonligi va uzluksiz taraqqiy etib borishini ta'minlaydi.Ta'lim esa taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ,,Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi''degan so'zlari yuqorida keltirilgan fikrimizning yorqin dalilidir.
Darhaqiqat, har qanday salobatli daraxtning ildizi chuqur va mustahkam o'rnashgan bo'lsagina , bu daraxt eng mustahkam va ko'rkam daraxtga aylanib gullab yashnayveradi. Binobarin, ta'lim tizimini ham bir daraxt misolida oladigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim shu daraxtning ildizi hisoblanadi. Shunday ekan, biz ta'lim sohasini yuksaltirish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni eng avvalo maktabgacha yoshdan boshlashimiz kerak.
Bugungi kunda ham aynan matabgacha talim tizimiga alohida etibor qaratilmoqda. Bola shaxsini shakllantirib borar ekanmiz, bu jarayonda uning har tomonlama rivojlanishini etiborga olishimiz kerak. Ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan rivojlanayotgan bola kelajakda jamiyatga, yurtga foydasi tegadigan shaxs bo'lib yetishadi. Har bir bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek nutq yordamida bilib olish qobitiyatiga ega. Ammo bolalardagi intellekt, ya 'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur) shunchaki bola

organizmining o'sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo'lmay, balki nutqining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bolalarning ifodali nutqini rivojlantirish har qanday faoliyatda olib boriladi, bu o'rinda tengdoshlar bilan birgalikdagi o'zaro munosabatlar uchun qulay sharoitlar yaratilgan, hissiyotlarning axloqiy ifodalari, jamoaviy tajribalar rivojlantiriladi, shunda bola o'z harakatlarini va o'rtoqlarining harakatlarini tushunadi va to'g'ri baholaydi. Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatdiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirib borish mashg'ulotlar va o'yinlar jarayonlarda amalga oshadi.Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirib borish maxsus dastur va qo'shimcha metodlar yordamida amalga oshiriladi. Shu o'rinda maktabga tayyorlov va majburiy bir yillik ta'lim guruhlari uchun ta'lim tarbiya jarayoni „Ilm yo'li ''variativ dasturi asosida tashkil etiladi. Ushbu dastur maktabgacha tayyorlov (6-7) yosh bolalarning 5 ta rivojlanish sohalari bo'yicha o'z rivojlantirish kompetensiyalariga ega. Nutq, muloqot o'qish va yozish malakasi kompetensiyalari bolalarning aynan nutqiy jihatdan rivojlanishini begilab beradi. "Ilm yo'li" dasturi asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish va maktabgacha ta'lim tashkiloti barcha xodimlari orasidagi hamkorlik jarayoni samarali olib borilsa, o'quv yili so'ngiga kelib bola davlat standartlarida belgilabgan quyidagi malakalarga ega bo'ladi:

-bola nutqni tinglaydi va anglaydi, so'zlashadi va muloqot qiladi;

-o'z ona tilida erkin so'zlashadi; so'z turkumlarini yoshiga monand mustaqil, grammatik to'g'ri qo'llaydi;

-gapdan sinonim va antonimlarni topa oladi va berilgan so'zlarga ularni moslaydi;

-ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolarini farqlaydi;

-turli gaplarni tuzadi;

shaxsiy tajribasiga tayanib, rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzadi;

turli janrdagi badiiy asarlarni ifodali hikoyalaydi;

-guruh muhokamasida muloqotga kirishib va tinglab ishtirok etadi;

-qofiyalar tuzadi, topishmoqlar topadi;

-nutqida xorijiy so'zlarni qo'llaydi;

-kichik she'rlarni, qofiyalarni so'zlab berishi mumkin;

-yil fasllari nomini biladi (bahor, yoz, kuz, qish).

Bola kitob va o'qishga qiziqish bildiradi .

-boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so'zlab beradi;

-sodda va murakkab gaplarni nutqida qo'llaydi;

-so'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi;

-bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi;

-so'z, tovush, bo'g'in, gap haqida tushunchaga ega;

-peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o'qiydi;

-bolalar adabiyoti janri nomini biladi (ertak, she'r, hikoya);

-mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi;

Keltirib o'tilgan malaka talablarini bolalarda shakllantirish esa juda murakkab va masuliyatli jarayondir. Bu jarayonnig asosiy qatnashchisi tarbiyachi bo'lsa ,yordamchilari bolaning ota-onasi, yaqinlari va tashkilotning psixologi , logopedi boladi.Ushbu jarayonda Tarbiyachi:

-o'z kasbiga masuliyatli,talabchan,o'z kasbiy kompetensiyalarining aynan mutaxasisi bo'lishi kerak.

Nutq o'stirish jarayonlarida tarbiyachidan bolalarning yosh hamda psixologik darajalarini hisobga olishi va har bir bolaga individual yondashishi,mashg'ulotlarda va odatiy jarayonlarda o'zi bolalarga o'rnak bo'lishi yani gramatik jihatdan to'g'ri shakklangan va adabiy tilda so'zlashishi talab etiladi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda esa zamonaviy texnologiyalar va yangi metodlardan foydalana olish ham tarbiyachining yutug'i hisoblanadi. Bolalar bilan ishlashda nutq rivojlanishi bo'yicha ijobiy natijalarga erishish uchun bolalar jamoasini to'g'ri tashkil etish,bolalar orasidagi o'zaro munosabatlarni o'zaro va o'z-o'ziga bo'lgan hurmat asosida so'zlashuvning gramatik qoidalariga

rioya qilgan holda o’rnata olish lozim. Nafaqat mashg’ulot paytida balki o’yin va erkin faoliyatda ham bolalar nutqining rivojlanishi kuzatiladi.

Maktabgacha pedagogikada ta'kidlanganidek, ifodali nutq eng yaxshi o'yin faoliyatida o'rnatiladi. D. B. Elkonin, R. I. Jukovskaya ta'kidlashicha, ifodali nutq, faoliyatning o'zi bolalarni yig'ish uchun sharoitlarni tashkil qilgan joyda yanada yorqinroq ifodalanadi. Bu borada eng qimmatlisi, birinchi navbatda, ommaviy xususiyatga ega bo'lgan guruh o'yinidir. Shaxsiy ehtiyojlar natijasida vujudga keladigan shaxsiy istaklar va manfaatlar o'z o'rnini jamoat motivlari, qoidalari, jamoaviy manfaatlarga bo'shatadi.[6, 35-b ]

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, Ulg‘aygan sari bolalarda aqliy salohiyatining o‘sib borishini kuzatish mumkin. Hayotining birinchi o‘n yilligida bolalar aqliy faoliyatining eng qiyin davri, ko‘plab yangiliklarni o‘zlashtirish, his-hayajonga to‘la davr bo‘ladi.[6 20]

Bolalarni maktabga tayyorlashda o'qitish usullarini tanlash muhimdir. Eng keng tarqalgan va samarali usul bu didaktik (ta’limiy) o'yinlardir.Bu kattalarning bolaga ta'limiy ta’sirining bir shakli va shu bilan birga maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati sifatida foydalanishdir. Shunday qilib, didaktik o'yinning ikkita maqsadi bor:

1. Kattalar tomonidan qo'llaniladigan tarbiyaviy.
2. O'ynoqi, bolalar o’zaro aloqaga kirishish.

Bu ikki maqsad bir-birini to'ldirishi va dastur materialini o'zlashtirishda ijobiy natijalarni ta'minlashi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O’STIRISH MASHG’ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.
2. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. Modern Science and Research, 2(9), 390-394.
3. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. Modern Science and Research, 2(6), 1223-1226.
4. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
5. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. Modern Science and Research, 2(9), 424-428.
6. Bahodirovna, H. N. (2023). TA’LIM JARAYONIDA BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O ‘QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 209-209.
7. Kozimova, N. A. (2023). BUGUNGI TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY O ‘QUVCHI SHAXSINING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 44-46.V
8. Abduqahhorovna, N. K. (2023). PSIXOLOGIK KONSULTATSIYAGA MUROJAAT QILUVCHI OTA–ONALARNING FARZAND TARBIYASI MUAMMOLARINI O ‘RGANISHDA HADISLARDAN TERAPIYA SIFATIDA FOYDALANISH.
9. Sobirovna, S. Y. (2023). O ‘YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(3), 93-99.
10. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 23(2), 87-92.

11. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. Modern Science and Research, 2(9), 350-352
12. Лукмонова, С. (2022). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHISINING RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH: Lukmonova Salomat Gafurovna, Boshlang’ich ta’lim nazariyasi kafedrasi o’qituvchisi, Buxoro davlat universiteti orcid 0000-0001-9040-0232. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 221-226.
13. 2. Gafurovna, L. S. (2021). BOSHLANG’ICH SINFLARDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. In Научно-практическая конференция.
14. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. Modern Science and Research, 2(10), 333-336.
15. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 132–134.
16. O‘ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O ‘YINLAR. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 484-486.
17. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. Universum: технические науки, (2-1 (95)), 57-59.
18. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 121-123). Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (pp. 60-62).
19. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). научно-методические основы организации самостоятельной работы по высшей математике. Проблемы науки, (4 (63)), 84-87.
20. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. Miasto Przyszłości, 35, 388-390.